



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRINING
BUYRUG‘I**

2021-yil 30 - sentabr 412 -son

Toshkent sh.

**Oliy ta‘lim tizimida ma‘naviy-
ma‘rifiy ishlar samaradorligini
oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 563-sonli qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021-yil 13-sentabrdagi 390-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik tizimidagi bo‘linmalar, tashkilotlar, davlat oliy ta‘lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 563-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilsin.

2. Quyidagilar:

“Davlat oliy ta‘lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Namunaviy nizom 1-ilovaga muvofiq;

Oliy ta‘lim muassasalarida tyutorlik lavozimining “Tarmoq ta‘rif-malaka ma‘lumotnomasi” 2-ilovaga muvofiq;

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining yangi tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining Nizomiga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirlik Ma‘naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi (N.Rahmonov), Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi (Q.Abduraximov), vazirlik huzuridagi Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi (I.Suvanov) ikki hafta muddatda markaz tashkiliy tuzilmasi tarkibida tashkil etilayotgan “Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo‘limi”ga tanlov asosida malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish hamda bo‘lim faoliyatini samarali tashkil etish choralarini ko‘rsin.

4. Vazirlik huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi (I.Suvanov)ga:

ta'lim muassasalariga tyutorlar uchun zarur bo'lgan uslubiy ko'rsatmalar va qisqa metrajli ijtimoiy videorolik hamda taqdimot materiallarini tayyorlab, ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich yuborish;

doimiy ravishda tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish, har semestr yakunida ularning faoliyatini muhokama qilib borish vazifalari topshirilsin.

5. Vazirlik huzuridagi Ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazi (A.Abdullayev) Ma'naviyat va ma'rifat markazi (I.Suvanov) bilan birgalikda 1 oy muddatda tyutorlik faoliyati bilan bog'liq hujjatlar (jurnal, hisobotlar)ni ortiqcha qog'ozbozliklarsiz olish va tahlil qilishning elektron tizimini ishlab chiqsin hamda amaliyotga joriy etsin.

6. Vazirlik huzuridagi Ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazi (A.Abdullayev), Iqtisodiyot boshqarmasi (M.Hamrayev) tyutorlik faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni yuritish va tahlil qilishning elektron tizimini ishlab chiqish bo'yicha xarajatlarni Ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlasin.

7. Davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlariga:

“Davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Namunaviy nizom asosida oliy ta'lim muassasasining Nizomini tasdiqlash va shu asosida 1-3-kurs talabalarining ma'naviy va ijtimoiy holatini doimiy ravishda tahlil qilib boruvchi, mavjud muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam ko'rsatuvchi tyutorlarni biriktirish amaliyotini tashkil etish;

tyutorlik lavozimiga talabgorlarni Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik lavozimining “Tarmoq ta'rif-malaka ma'lumotnomasi” asosida ishga qabul qilish;

tyutorlar faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash;

vazirlik huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan taqdim etilgan materiallar, uslubiy qo'llanmalar va yo'riqnomalarni o'z vaqtida tyutorlarga yetkazish choralarini ko'rish;

har chorak yakuni bilan tyutorlar faoliyati bo'yicha tahliliy hisobotni (elektron shaklda) vazirlik huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markaziga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Ushbu buyruq ijro nazorati vazirning birinchi o'rinbosari K.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



A.Toshkulov